

VOYAGA YETMAGAN O‘SMIRLARNING JINOYATGA UNDOVCHI OMILLAR

Ibroximov Doniyor Ikromjon o‘g‘li

Farg‘ona davlat universiteti

Sirtqi bo‘limi Amaliy psixologiya talabasi

Annotasiya: *O‘smirlarni agressiv xolatlarini o‘rganish, ularni keltrib chiqaruvchi va ta‘sir qiluvchi omillarni aniqlash, jinoyatga undovchi agressiv xolatlarini o‘rganish hamda bunday xolatlarini oldini olish va bartaraf qilish kabi chora tadbirlar va bir qator vazifalarni ishlab chiqish va amalda qollash tashkil etadi.*

Kalit so‘zlar: *Agressiya, jinoyat, xasad, ochko‘zlik, qahr- g‘azab, negativlik, jismoniy agressiya, verbal agressiya.*

Bolaning halol inson bo‘lib yetishishida tashqi muhit va kattalar ta‘siri muhimdir. “Bola loy ota – ona esa kulol” deb bejizga aytmaydilar. Shuningdek farzandni niholga ota- onani bog‘bonga o‘xshatishda qiyosiy ma‘no bor. Kulol yoki bog‘bon qanchalar maxoratli bo‘lsa u yasaydigan idish yoki o‘stiradigan ko‘chat yaxshi bo‘lib o‘sadi. Agar mehnatda qiyinchiliklardan qo‘rqaschi? Buning oqibati ham ma‘lum. Demak, buning ozini iqtisodiy qiyinchiliklarni ro‘kach qilib bolalarni pul tomonga yonaltirish masalalari xaqida mulohaza qilishimiz kerak.

“Pul qo‘lni kiri” bugun bor, ertaga yo‘q narsaku. Bolani shunga o‘rgatishimiz keraki, bor narsaga e‘tiborni qaratishni yo‘qlikda borni qidirish kerakligini buning uchun bilimni fikrini topa olishiga yordam berishimiz kerak. Shuni takidlashimiz lozimki o‘smirlar qolidan hech narsa kelmaydiganlarga xos qaramaslik kerak. Har bir bolani jamiyat uchun oila uchun foyda keltiradigan holda shakillanishini unutmashimiz kerak. Qolaversa yoshligidanoq pulga o‘rgatilgan bola voyaga yetganda bu odatiy hollarga uncha e‘tibor bermay boraveradi. Har xil ko‘chalarga kirishi, bilib- bilmay harxil hatti- harakatlar qilishi va uning oqibatida jinoyat ko‘chasiga kirib qolishi mumkin. Agar o‘smirlar o‘rtasida sodir etiladigan qonunbuziklar, jinoyatchiliklar, xodisalar, ta‘qib etilsa yuqoridagi fikirlarni hayotiy haqiqatlar ekanligini bilib olamiz. Qonun nega buziladi?

Bu borada jinoyat sodir etiladigan asil sabablarni qonunni buzilishi xollarini ildiziga razm solish kerak. Shunda bir fikir keladi, bolalik davrini davom etishida fe‘l - atvorlaridagi o‘zgarishlar namoyon bo‘lib boraveradi. Bunday ajabtovur siyosat albatta xalqning qonunga nisbatan hurmatini pasaytiradi. Qog‘ozda qolib ketdi. “Qonun bemalol buzilishi mumkin faqat yilni tadqiq qilsin” degan tushuncha xalq ongiga singadi. Ayni paytni aytak yoshlar o‘rtasida qonunga mensimay qaraydigan bo‘lib qolash ortadi. Bu illat asta - sekin gazzak ortib boraveradi. Bu ham yetmaganidek bizning kino ekranlarimizda video shaxobchalarimizda toldirilgan g‘arb va amerikalik kino filimlari to‘lib yotibdi. Xullas, yolg‘on siyosat, yolg‘on mafkura tarbiya ravishda jinoyatchilikni o‘shishiga olib keladi. Endi tassavur qilaylik, qonunni buzib jinoyatkorona yollar bilan yashagan odam, ayniqsa, yoshlar nazarida baland ijtimoiy mavqe kasb etadi. Uzoqqa borib o‘tirmaylik sovet davlatida magazinchi obrazi barcha adabiy asarlarda va kinolarda salbiy bayon etilgan, hayotda esa aksincha, magazinchi bo‘lsa pichog‘i moy ustida bo‘lishini orzi qiladi hamma odam. Talablar va takliflar mansubligi o‘z – o‘zidan jinoyatchilikni ko‘payishiga olib keladi. Demak, jinoyat ildizlarini ijtimoiy hayotdan qidirishimiz kerak.

Jahonning ko‘pchilik xuquq tadqiqodlari jinoyatchilik va jinoyatni ijtimoiy chekinishlarni bir turi xisoblashadi va uning jinoyatini kengroq taxlil qilishadi. Jinoyat muommasi malumki, asosan XVI asrdan boshlaridan chuqurroq o‘rganilgan, ungacha maxsus o‘rganish bo‘lmasada, lekin bu xaqda ko‘plab fikrlar aytilib, yozilib qoldirilgan.

O‘rta asr siyosatchisi va yozuvchisi Tomas Mor jinoyatlarni to‘g‘ri tomir otishi va unga qarshi kurash muommolari xususida fikr bildirgan. Uning yozishicha, jinoyatchilikka qarshi jazo choralarini xaddan tashqari qattiq qo‘llash ijobiy tomonga yo‘llamas ekan. Tomas Mor jinoyatchilar ko‘payish sabablarini 2 ta asosiy omilga qaratadi, ya‘ni birinchisi bu jamiyatga kambag‘allar toifasini ko‘payishi va aksari axolining turmush tarzini yomonlashuvi. Ikkinchisi bu ishsizlarning ko‘payishi yoxud yerlarning dehqonlardan tortib olinib xukumat saylovlariga, mulkdorlar saylgohlariga aylantirilishida deb biladi. Mor fikrlariga chuqurroq e‘tibor berilsa, jinoyatchilik ildizlarini u iqtisodiy va ijtimoiy omillarga uzviy bog‘laydi.

Jinoyatchilik to‘g‘risida qadimda shunday fikrlar keltirilgan. Buyuk faylasuf Aflotun (Platon) jinoyatchilikni tug‘diruvchi omillarni 3 guruxga bo‘lgan.

- 1) Ehtroslar, yani xasad, ochko‘zlik, qahr- g‘azab;
- 2) Qoniqish, yani huzur- halovat axtarish;
- 3) Savodsizlik, madaniyat yoki bilim yetishmasligiga bog‘lagan.

Arestotel esa jinoyatchilikning “ buzilgan jirkanch qalb egasi”- deb atagan va u tug‘ma bo‘ladi. Ona qornida ko‘q asabiylashishi ehtirosalar ta‘sirida noto‘g‘ri shakillanadi, dunyoga kelib o‘sha jarayon davomida qalbi siniq bo‘ladi va jinoyatchi bo‘lib yetishadi, degan fikrni bildirgan.

Biz o‘smirlar va yoshlarning psixologik xolatlarini o‘rganish, ularni tarbiyalashning o‘ziga hos xususiyatlari va qonuniyatlarini, mexanizmlarini ochish maqsadida viloyat “Kamolot” yoshlar harakati bilan hamkorlikda Quvasoy shaharidagi “Voyaga yetmagan o‘smirlar bilan ishlash” bolimi va IIB ro‘yhatida turadigan o‘smirlar hamda Quvasoy shaharidagi 3-umumta‘lim maktabi 8-snif o‘quvchilarida Bassa-Darki tavsiya etgan “Agressiv xolatlar diagnostikasi” metodikasini o‘tkazdik. Tadqiqotda jami 60ta respondent ishtirok etdi. Shundan 20 tasi qizlar 40 tasi og‘il bolalardir. O‘smirlik davri ta‘sirlari bilan farqlanadi. Shuning uchun tashqi ta‘sirlarga beriluvchi o‘smir qizlarga alohida e‘tibor berishimiz zarur. O‘smirlar psixikasida keskin o‘zgarishlar uchrab turadi. Natijada shaxslararo munosabatda talaba va o‘quvchilarning muomilasi o‘zgarishi vujudga keladi. Bu ozgarishlar natijasida qoshimchalar uchraydi. Vujudga kelgan ozgarishlar qarama qarshiliklar koproq o‘smirlarning psixologik xolatlari bilan izohlanadi. “Agressiv xolatlar diagnostikasi”da o‘tkazilib alohida ro‘yhatda turuvchilar bilan alohida shug‘ulandi. Quyida natijalar jadvali beriladi. I- jadvalda maxsus ro‘yhatda turuvchi yoshlar ulardan 15tasi ogil bolalar 5 tasi qizlardir.

IIB ro‘yhatida turadigan voyaga yetmagan o‘smirlarda “Agressiv xolatlar diagnostikasi” natijalari.

I-jadval

N	<u>Agresiv xolatlar</u>	<u>O‘g‘il bolalar</u>		<u>Qizlar</u>	
1	<u>Jismoniy agressiya</u>	165	19.4	33	16.5
2	<u>Bilvosita agressiya</u>	112	13.2	20	19
3	<u>Jaxildorlik</u>	113	13.3	19	9.5
4	<u>Negativlik</u>	59	6.9	16	8
5	<u>Xafa bolish</u>	127	14.9	28	14
6	<u>Yolg‘on gumonsirash</u>	39	4.6	26	13
7	<u>Verbal agressiya</u>	158	18,6	27	13.5
8	<u>Gunoxkorlik xisi</u>	76	8.9	31	15.5
9	<u>Ja‘mi agressiya</u>	849		200	

Jadvaldagi sonlar maxsus ro‘yhatda turgan o‘smirlarning agresiv xolatlari qay darajada ekanligini ko‘rsatib beradi. O‘smirlarda jismoniy agressiya o‘g‘il bolalarda (19.4%), qizlarda (16.5%)ni , Bilvosita agressiya o‘g‘il bolalarda (13.2%), qizlarda (19 %)ni, Jaxildorlik o‘g‘il bolalarda (13.3%), qizlarda (9.5%)ni, Negativlik o‘g‘il bolalarda (6.9%), qizlarda (8%)ni, Xafa bolish o‘g‘il bolalarda (14.9%), qizlarda (14%)ni, Yolg‘on gumonsirash o‘g‘il bolalarda (4.6%), qizlarda (13%)ni, Verbal agressiya o‘g‘il bolalarda (18.6%), qizlarda (13.5%)ni, Gunoxkorlik xisi o‘g‘il bolalarda (8.9%), qizlarda (15.5%)ni tashkil qildi.


Bunda o‘smir birovni aldagani uchun qilinadigan o‘zining fikrlaridan biron ishdan o‘zini olib qochishdan o‘z ota onasiga yaxshi sozligidan noto‘g‘ri ish qilgandan to‘g‘ri hayot kechirishidan afsuslanadi. Bu yoshlarning oz holatlaridan ajralib turga quydagi xolatlardan to‘g‘ri foydalanilishlari zarurdir. Bu xolatga tushushini oldini olish uchun ota onalar biror ish bilan mashgul qilishimiz kerak. Boshqa bir guruh yoshlar esa jismoniy agressiya yuqori boladi. Ular boshqalarga yomolik qiladigan ozlarini toxtata olmaydilar agar guruhdagi biron bolani urushsa ular ham unga qoshilib urishishadi ozlarini tohtata olishmaydi. Jahil chiqanda aqil ketadi deb bekorga aytsihmaydi qariyalarimiz. Yana bir hafa bolishga xos o‘z taqdirlaridan ichi chiqmaydi. Jahilliklari yuqori bolgan yoshlarimiz jizakilanishi o‘zidan qolgan yoshlardan tez achiqlanishi kop gapirishi bilan ajralib turadilar. Belvosita agressiyasi mavjud yoshlar esa ozlari yomon korgan odamlarga yomilik qilib zarda qiladilar ular bilan chiqisha olmaydilar eshikni yopib jahil qilib chiqib ketadilar.

Maxsus ro‘yhatda turgan qizlarimiz jahil agressiyasi 16.5% ni tashkil qiladi aslida bu narsa bizning qizlarimizga judaham uyatlidir. Afsus bu xodisalar hayotimiz davomida uchrab turadi. Bu narsaga sabab oila muxiti ularga e‘tibor ajratilmaganligir. Ular o‘z atrofiga o‘zlariga o‘xshagan qizlarni to‘plab guruh bo‘lib olishadi va aloqada bo‘lib turishadi. Qilgan ishlaridan afsuslanib gunohlarini kechirishlarini hohlaydilar, nahtori hayot kechirilayotganini ozlari ham xis qilishadi. Ayni paytdagi ularni holatlarini to‘g‘ri tushungan holatda yondashuvimiz kerakdir. Berval agressiyasi mavjud qizlar hechkimni gapiga kirmaydi to‘g‘ri gapni qabul qilmaydilar I ta gap kam 2 ta gap kop I/5 ta gap yoq ularga. Lekin tushunishga harakat qilishimiz kerak. Biz ularga o‘zbek qizlarini ibosi hayosi qanday ekanligini kimning avlodlarimiz kimning zuryotlarimiz o‘rgatmogimiz zarur. Ular kochaga chiqqanda sumkalariga pul narsalarni orniga ota va kaka ukasini gururini solib chiqishlarini orgatishimiz zarur.

Ular bir bizning hayotimiz tokin fayz barakadir. Sababi ular bolmaganda inson hayotga kela olmaydilarku, bu xolatlarga Quvasoy shaharidagi I-umumta‘lim maktabi 9-snif o‘quvchilarini ham bunday agressiyasi bor qizlarga tadqiqotlarini namoyon qildilar. Quydagi chizma orqali ifodalaydilar.

IIB ro‘yxatidagi voyaga yetmagan o‘smirlarning ijtimoiy ustanovkalar bo‘yicha ko‘rsatkichlari Mehnatga yo‘nalganlik 2.4ga, Erkinlikka yo‘nalganlik 7.7ga, Hokimyatga yo‘nalganlik 4.5ga, pulga yo‘nalganlik 7.0ga teng. Natijalardan ko‘rinib turibdiki IIB ro‘yxatidagi voyaga yetmagan o‘smirlarda erkinlikka bo‘lgan yo‘nalganlik juda yuqori, pulga bo‘lgan yo‘nalganlik yuqori, hokimiyat bo‘lgan yo‘nalganlik past va mehnatga bo‘lgan yo‘nalganlik juda past ekan.

IIB ro‘yxatidagi o‘smirlarning ijtimoiy ustanovkalar bo‘yicha ko‘rsatkichlarini diagramma ko‘rinishi.



Quvasoy shaharidagi I-umumta‘lim maktabi 9-snif o‘quvchilarini “Agressiv xolatlar diognostikasi” bo‘yicha natijalari.

2-jadval

N	Agresiv xolatlar	O‘g‘il bolalar		Qizlar	
		San	Prosent	San	Prosent
1	Jismoniy agressiya	106	15.7	82	12.9
2	Bilvosita agressiya	84	12.4	69	10.9
3	Jahildorlik	74	10.9	63	9.9
4	Negativlik	48	7.1	41	6.5
5	Hafa bolish	54	8	77	12.2
6	Yolg‘on gumondorlik	88	13	83	13.1
7	Berbal agressiya	129	19.1	117	18.5
8	Gunoxkorlik xisi	92	13.6	101	15.9

9Jami 675


633

Jadvaldagi sonlar o‘quvchilarini “Agressiv xolatlar diognostikasi” bo‘yicha natijalari. Bunda Jismoniy agressiya o‘g‘il bolalarda (15.7%),qizlarda (12.9%)ni, Bilvosita agressiya o‘g‘il bolalarda (12.4%),qizlarda (10.9%)ni, Jahildorlik o‘g‘il bolalarda (10.9%),qizlarda (9.9%)ni, Negativlik o‘g‘il bolalarda (7.1%),qizlarda (6.5%)ni, Hafa bolish o‘g‘il bolalarda (8%),qizlarda (12.2%)ni, Yolg‘on gumondorlik o‘g‘il bolalarda (13%),qizlarda (13.1%)ni, Berbal agressiya o‘g‘il bolalarda (19.1%), qizlarda (18.5%)ni, Gunoxkorlik xisi o‘g‘il bolalarda (13.6%), qizlarda (15.9%)ni tashkil etdi.

Jadvaldagi sonlardan ko‘rinib turibdiki, o‘quvchi yigitlarda hamma agressiya yetarli darajada mavjuddir. Bu taxlildan shunday xulosa chiqaramizki o‘smir yoshlar o‘rtasida sodir qilingan agressiyaning chiqarib tashlanishi agressiyaning susayishi hulqning susayish prinsplari va agressiya reaksiyasini aniqlash va mustahkamlash zarurdir. Bunda yoshlar muloqatlarini yanada mustahkamlashlari ularga psixologik trennular amalga oshirib turmogimiz zarur. Agressiyani kamayishiga va uni ijobiy holatga o‘tishiga barcha zarur narsalar bilan ta‘minlamog‘imiz zarurdir.

Quvasoy shaharidagi 1-umumta‘lim maktabi 9-snif o‘quvchilarini “Agressiv xolatlar diognostikasi” bo‘yicha

natijalarini diagramma ko‘rinishi.



Xulosa qilib shuni aytish joizki, o‘smir yoshidagi bolalarning noijtimoiy hulqi asosida yuzaga kelgan xarakteralogik belgilarini pedagogik jihatdan yaxshilash uchun har biriga individual yondoshish lozim. Odam jinoyatchi bo‘lib tug‘ilmaydi, u jinoyatchi bo‘lib shakllanadi. Noqulay sharoitlar ta‘siri ostida uning shaxsi asta sekinlik bilan o‘z ifodasini topadi. Lekin bu sharoitlar jinoiy qilmishni keltirib chiqarmaydi, lekin shaxsning ichki dunyosi va psixologiya-sini vujudga keltiradi. Inson o‘z psixologik tabiyatiga tegishli bo‘lgan hayotiy sharoitlarni tanlaydi va qabul qiladi. Har qanday individ shaxs sifatida mavjud munosabatlar, rivojlanish va ongning mahsulidir. Lekin bu munosabatlarning shaxs tomonidan qabul qilinishi har - hil bo‘lib turli harakatlarga olib keladi. SHaxsning qadriyat, normalar, ijtimoiy institutlar va guruhlariga bo‘lgan munosabati tashqi va ichki sharoitlarga bog‘liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.
2. . Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. Asarlar I-jild.- T:O‘zbekiston, 2017.–592 b.
3. Djuhonova, N. "PREPARING STUDENTS FOR FAMILY LIFE AS A PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL PROBLEM." Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества. 2020.

4. Джухонова Н. Х., Мамажонова Ш. МАҲАЛЛА-ҚИЗЛАРНИ ОИЛАВИЙ ҲАЁТГА ТАЙЁРЛАШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ СИФАТИДА //ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ. – 2021. – Т. 4. – №. 7.
5. Djухонова, Nohida. "BADIIY ADABIYOTLARDA PSIXOLINGVISTIKANING QO‘LLANILISHI." Журнал иностранных языков и лингвистики 2.6 (2021).
6. Джухонова Н. Х., Иброхимов Д. ЭТНОПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПОДГОТОВКИ ДЕВУШЕК-СТУДЕНТОК К СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 829-835.
7. Rahimova K Abdulayeva A “ Tarbiyasi qiyin o‘smirlar psixologiyasi” Fargona 2003-yil
8. Usmonaliyev M Karaketov Y “Kriminologiya” “Yangi asr avlodi”